

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



BIZ SALAFLAR IZDOSHLARIMIZ

Ilmiy – amaliy anjuman
materiallari

ЖИЗЗАХ-2023

(2-kitob, 1,3,4,5 - shu'balar)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI

“BIZ SALAFLAR IZDOSHLARIMIZ”

mavzusidagi ilmiy – amaliy anjuman materiallari

(2-kitob, 1,3,4,5 - shu'balar)



YÜK: 821.512.1993 KBK: 83.3(5Y)

Mazkur to‘plam Alisher Navoiyning 582 yilligi hamda Z.M.Boburning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023- yil 25- yanvar № PK-20 “Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash” to‘g‘risidagi Qarori bilan tashkillashtirilgan

“BIZ SALAFLAR IZDOSHLARIMIZ”

mauzusidagi Ilmiy-amaliy anjumanining 1,3,4,5 shu‘ba materiallari asosida tayyorlandi.

To‘plam adabiyotshunos olimlar, izlanish olib borayotgan yosh tadqiqotchilar va o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchilari hamda magistrlar uchun mo‘ljallangan.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:

JDPU dotsenti, f.f.doktori

Soatova Nodira Isomitdinovna

JDPU dotsenti, f.f.f.(PhD)

Salimova Dilnavoz Akmalovna

JDPU dotsent v/b, f.f.f.d (PhD)

Turopova Parizod Shavkat qizi

Bosh muharrir:

O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani, f.f.nomzodi, dotsent

Soyipov Sunatulla Normatovich

Mas’ul muharrir:

JDPU dotsenti, f.f.doktori

Soatova Nodira Isomitdinovna

O‘zbek adabiyoti o‘qitish metodikasi

kafedrasi mudiri v.b., f.f. f.d.(PhD)

Jo‘rayev Murodilla Alishboevich

Taqrizchilar:

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi

mudiri, f.f. doktori, professor

Usmonjon Qosimov

O‘zbek adabiyoti o‘qitish metodikasi

kafedrasi dotsenti, f.f.nomzodi

Karimova Yulduz Akulovna

Ushbu to‘plam Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti Ilmiy Kengashining 2023- yil 6-fevraldag‘i 7-sonli yig‘ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

g‘animat vaqtini behuda o‘tkazadi. Yozuvchi bu xatti-harakatlarning bema’nilashib ketganini ta’kidlash uchun kulgining mubolag‘a, lof kabi badiiy tasvir vositalarini qo‘llaydi. Ya’ni, paxtakor qahramon rayon o‘t o‘chirish komandasining pensiyaga chiqayotgan keksa xodimini tabriklashga yuboriladi. Tarvuzni butun yutib o‘yin ko‘rsatadigan polvonni qutlashga chiqadi. Oxiri yosh drujinachilar bilan rayon markazidagi somsapazlarni tekshirgani otlanadi.

Xullas, yozuvchi kulgili vaziyatni mubolag‘a usuli orqali yanada kuchaytirib, o‘quvchida shodon qahqaha paydo qiladi va bu bilan jamiyat rivojiga xalaqit berayotgan mayda nuqson, kamchiliklarga e’tiborni qaratadi. Har ikki hikoyada ham yozuvchi badiiy tilning xalqona, nozik qochirimli, shirali, ko‘p ma’noli xususiyatlaridan keng foydalanadi.

“QUTADG‘U BILIG”DA AXLOQIY MADANIYAT VA YETUK INSONNI KAMOLGA YETKAZISH MASALALARI

*Zilola Abdusodiqova, JDPU magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.d., dotsent Surayyo Eshonqulova*

Ma’lumki, real gumanizmning talabi jamiyatda amalga oshiriladigan har qanday tadbirning oqibat-natijsasi inson shaxsini yuksaltirishga, uning hurfikrlilik darajasini oshirishga, ruhiy-ma’naviy dunyosini boyitishga, ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishidan iborat. Aks holda ular jamiyatning ma’naviy inqiroziga sabab bo‘lishi mumkin. Ijodkorning hukmron tabaqa buyurtmasiga asosan yaratayotgan asari ana shu real gumanizm g‘oyalariga ters bo‘lishi mumkin emas. Adabiy merosni tadqiq etishda ham uning o‘z davri ma’naviy hayotida o‘ynagan rolini ustuvor masala sifatida diqqat markazida tutish maqsadga muvofiqdir. Chunki u rivojlanuvchan hodisa bo‘lib, biz tushunib yetgan narsalar pirovard natija emas, buyuk mumtoz merosning bir qirrasi, xolos. Muayyan bir obidaga turli davrlardagi nuqtayi nazarlar turlicha bo‘lishi tabiiydir [2’18]. Masalan, “Qutadg‘u bilig” – deb yozadi A.A.Valitova, – haqiqatda ham yorqin ifodalangan axloqiy asar bo‘lib, hukmdor bo‘lishga tayyorlanayotgan yosh vorisga pand-o‘gitlar tariqasida yozilgan” [5;129]. I.Barolina esa bu asar o‘zida axloqiy o‘gitlar zanjirini mujassamlashtirib, falsafiy, ijtimoiy hamda axloqiy muammolarning katta doirasini qamrab olganini qayd etadi [4’102]. Tadqiqotchilarning deyarli barchasi asarning didaktik xarakterda ekanligini ta’kidlashadi. “Qutadg‘u bilig”da didaktik ruh nihoyatda kuchlidir. Bu shoirning niyati va o‘z asari oldiga qo‘ygan maqsadidan kelib chiqadi [6’59-60]. Asardagi bu xususiyatga ayrim tadqiqotchilar kamchilik sifatida qarashadi. Bu faqat «Qutadg‘u bilig»dagina emas, balki didaktik ruhdagi ko‘pgina asarlarga qarashda ko‘rinadigan umumiy xususiyatdir. Bunday qarashlarga V.B.Kudelin Yunus Emro ijodi misolida yaxshi zarba bergen [7’88-89].

Bizningcha, adabiy manbagaga baho berish va o‘rganishda vatanparvarlik, milliy iftixor va xalqchillik, insonparvarlik, taraqqiyparvarlik, badiiy-estetik qimmatga egalik, badiiy mukammallik kabi mezonlarga tayanilishi lozim, deb

o‘ylaymiz. Binobarin, “Qutadg‘u bilig” asarining pand-nasihatga oid xususiyati dostonning turkiy xalqlar uchun yaratilgan eng buyuk adabiy yodgorligi bo‘lib, asarning adabiy manba sifatidagi darjasи yuqoriligi va muallif ijodini kompleks o‘rganishda ahamiyatli ekanligini belgilaydi. “Qutadg‘u bilig” dostoni nafaqat dunyo adabiyoti durdonalari qatoridan joy olgan, balki shu kunlarda ham butun dunyodagi insonlarni birlashtirayotgan asarlardandir. Doston sahifalarida bayon etilgan insonparvarlik g‘oyalari bizning davrda ham o‘zining o‘ta dolzarbligini yo‘qotmagan, asar matniga joriy qilingan g‘oyalarning axloqiy va tarbiyaviy ahamiyati esa bu adabiy yodgorlikka zamonaviy ruh bag‘ishlaydi.

“Qutadg‘u bilig” – turkiy tilida yaratilgan ilk mumtoz doston. U qariyb 6500 bayt yoki 13 ming misraga yaqin hajman katta asar bo‘lib, muallifning ta’kidlashicha, 18 oyda yozib tugatilgan. “Doston Sharq adabiyotidagi epik asarlar uchun qabul qilingan masnaviy (qofiyalangan baytlar) shaklida yozilgan bo‘lib, siyosiy va ta’lim-tarbiyaviy, pand-nasixat tarzida bayon etilgan donolik so‘z, nasixat va ibrat asaridir. Unda insonning o‘zini jamiyatda, uyda qanday tutishi kerakligidan boshlab, xonlar va beklarning o‘z qaramog‘idagi har bir jamoaviy tuzumlarga qanday ta’sir etgani haqidagi masalalar yuritiladi. Asarda iymonlilik, ezgulik ruhida xalqqa qutlug‘ umr tilash, baxtli,adolatli jamiyat tuzish kabi maqsad va vazifalarni qo‘yilishi dostonning o‘z davri, uchun qomus vazifasini bajargan deyish eng to‘gri baho, deb o‘ylaymiz. Nafaqat o‘z davri, balki kelajak avlodlar uchun ham g‘oyaviy jihatdan tub negizi baquvvat axloqiy maqsadlarni yetkazish uchun Yusuf Xos Hojib Balasog‘uniy asarining asosi etib Adolat, Davlat (Baxt), Aql, Qanoat kabi to‘rt ezgu timsollarni asosiy qahramon qilib dostonga kiritgan.

Ibirayim Azimxon va Jamirova Ulmekkening “Yusuf Balasog‘uniyning “Qutadg‘u bilig” kitobidagi adolat, baxt, aql, qanoat tushunchalari” nomli maqolasida “Al-Farobi bilan Yusuf Balasog‘uniyning adolatli odam, adolatli boshchi yoki g‘amxo‘r mamlakat haqidagi ideyasi – hayol. Al-Farobi va Yusuf Balasog‘uniy ham bunday ideyaning yuzaga oshishiga ishonishmagan, sababi u hususiyatlarni hammasini o‘z bo‘yiga singdira olgan falsafiy boshchini topish qiyin ekanligini tushunishgan” [1’149] degan fikriga butunlay qo‘silib bo‘lmaydi. Sababi har narsaning ikki tomoni bo‘lganidek, yozuvchi o‘z asarida ham falsafiy-axloqiy, ham ijtimoiy muammolarni qamrab oladi. **Birinchidan**, asarda yozuvchi ijtimoiy nuqtayi nazardan jamiyatga adolatli va g‘amxo‘r boshchi bo‘lishi uchun mamlakatdagi hukmdor bo‘lishga tayyorlanayotgan har bir voris adolatli, davlatli – ham ma’naviy, ham moddiy jihatdan (baxtli), aqli va qanoatli bo‘lishini uqtiradi. **Ikkinchidan**, muallifning falsafiy-axloqiy jihatdan asar g‘oyasini tub negiziga e’tibor qaratsaylik, doston shu to‘rt obrazlarning suhbatidan tashkil topgan bo‘lib, zamondoshlari va kelajak avlodga har bir inson ana shu to‘rt fazilatni o‘zida mujassam etganda, to‘rttalasi birlashganda – Qutadg‘u bilingga erishadi degandek, nazarimizda. Ahir bejizga muallif tomonidan bunday nom qo‘yilmagan. Bu qutga – baxt, saodat va davlatga eltuvchi bilim demakdir. Jamiyatdagi insonlar o‘zgarsa, mamlakat o‘zgaradi va rivojlanadi degan g‘oya ishongan.

Bu obrazlar ma’joziy ma’noda bo‘lib, inson tug‘ilibdiki umrini oxiriga qadar o‘zining ichki dushmani – illatlari bilan kurash olib boradi. Asardagi to‘rtala

fazilarlarni o‘zida jo qila olganda, inson yetuk axloqiy madaniyatni kamolga yetkazishi mumkin degan g‘oyani muallif quyidagicha asoslaydi: Biri – to‘g‘ri, odil va qattiqxo‘l tartib, qonun. Eng katta boshliq ham shu, Adolat – Kuntug‘dini Elik (xon o‘rniga qo‘ygan). O‘ziga-o‘zi bergen tafsifda: Yarqiragan kunni ko‘r va ko‘r meni, Kun so‘nsa agar, tirikchilik o‘lgani. Shu singari mening har bir qilig‘im, Odil qonunni chala olmas qurug‘ing, – deydi. Mutloq adolati bilan faxr etadi. Ikkinchisi – boylikning o‘zi, ya’ni omad va davlat. Bu Kuntug‘di Elik amirning vaziri, ismi Oyto‘ldi. Qonunning bosh vaziri mana shu qut – Davlat. O‘zini-o‘zi Men ham oy kabi yangilanib turaman, Birda borman, birda jumboq makonim deb aytadi. Uchinchisi – Aql, bu vazirning bolasi – O‘g‘dulmush. U – aql-o‘y, bilimning tushunchasi. To‘rtinchisi – Qanoat, rahm. U vazirning qarindosh akasi – Qanoat. Sifolik, qanaatlilik, o‘limni unutmaslik haqida. Mana, shularning orasida aql bilan suhbatda har xil hayotiy masalalar so‘z bo‘lib, aniq aks ettiriladi. Har bir so‘zda, baytlarda odamzod uchun tarbiyaviy ahamiyati katta qoidalar aytildi. Faylasuf shoир nima qilsak, baxtli zamon keladi, nima qilsak qutlug‘ mamlakat quramiz, odam qanday, zamon qanday bo‘lishi kerak?, – degan savollarga tinmay javob izlaydi. Chin baxtning ko‘zini odamgarchilikdan, g‘amxo‘rlikdan, bilim bilan adolatdan izlaydi.

Adolat, Davlat, Aql, Qanoat – to‘rt qahramon, to‘rt falsafiylikni o‘zida mujassam etgan bir butunlik. Hayotning barcha voqealari ham shu to‘rt tushunchadan paydo bo‘lgan. To‘rttalasining har qaysisiga ta’rif beriladi. Har birining ezguliklari va vazifalarini ta’riflanadi. Dostonda Adolat obrazi zotiga xos xon, amir holatida tasvirlanar ekan, adolatli qonunni ustuvor qiluvchi ezgu bekning, ezgu boshchining qanday bo‘lishi tasvirlanadi:


*"Eli yaqin – soq, qiroqi odamning,
Go‘ri yaqin – qayg‘usiz nodonning!"
Beklikdan er topar edi baxt qancha,
Elning ishini kishilik bilan bajarsa!*

Adolat umumiy odillik, haqiqat g‘oyalariga bog‘lansa, Davlat, Qanoat, Aql, sabrlilik kabi xususiyatlar bilan yondosh tasvirlangan. Davlat timsoli bo‘lmish Oyto‘ldi farzandi O‘g‘dulmushga shunday nasihat qiladi:

*To ‘g‘ri so ‘z bo ‘l, yomonlikdan bezgaysan,
To ‘g‘rilikning asosida – baxtu-qut.
Yaxshilik qil, yomonlikdan bezgaysan,
Shunda ezgulik kelar, izlab kezmaysan!*

Bu dunyodagi odam safarga chiqqan kishiga o‘xshaydi. Bu safar uzun yo‘ldan iborat. Uzoq yo‘lga tushgan kishi esa unga munosib tayyorgarlik ko‘rishi kerak. Barcha orzularga erishdim degan kishi, umrining ham tugaganini bilmay qoladi. Hashamatli uy va saroylar qurishning nafi yo‘q – seni qora yerdan iborat qabr kutib turibdi. Shuning uchun ham ba’zi narsalardan tiyilib, ba’zi narsalarga kuch berish lozim. Xususan, haromga aralashmaslik, zulm qilmaslik, kishi qonini to‘kmaslik, xusumat va o‘chdan tiyilish shart. Muallif zulm va adolatni juda yorqin ifodalarda tasvirlab ko‘rsatadi:

Zulm yonib turgan o‘t (kabi)dir, yaqinlashsa kuydiradi,



*Adolat (esa) suv (kabi)dir, u oqsa, ne'mat unadi.
 Elni uzoq idora qilayin desang, ey dono,
 Siyosatni to'g'ri yuritish, xalqni sharaflash kerak.
 Adolat bilan el rivojlanadi, olam guliston bo'ladi,
 Zulm tufayli el inqiroz topadi, olam buziladi.*

Olam karvonsaroy. Har bir odam esa shu yo'ldagi karvonlarning littasi. Endi tasavvur qiling, karvon karvonsaroyda qancha muddat to'xtab turadi? Demak, sen ko'chishingdan oldin ko'chlaringni yuborishni o'yla. Tabiiyki, oldin yuborilishi lozim bo'lgan "ko'ch" insonning ezgu amallaridir [3;42].

Asarda insonlar ichkilikbozlik, fisqu fasod, zino kabi turli illatlardan tiyilishi bot-bot ta'kidlanadi:

*Ichimlik ichma, fisqu fasoddan uzoq tur, (ulardan) qochgin.
 Bu bir qator narsalar doimo beglikni buzib yuradi.
 Beg ichimlik ichmaydigan, fasod qilmaydigan btlishi kerak
 Bu ikki qilmishdan zinhor qut qochadi.*

Ushbu illatlardan forig' bo'lishni tayinlaydi. Haqiqiy er kishi o'z mehnati orqali rohatga erishishi quyidagi misralarda o'z aksini topgan:

*Ichimlik ichma, tubanlarga aralashmay yur.
 Emin yur, o'zing ezgu bo'lasan.
 Bu ikki xulqdan muqaddas qut qochadi,
 U kishi uchun qashshoqlik eshigini ochadi.
 Ichimlik ichma, yaramaslarga qushilma, uzoqlash,
 Zino qilma, fosiq nomini olma, zinhor ehtiyyot tur
 Bu ikki qiliqdan tabarruk qut qochadi,
 U (narsa) kishiga gadolik yo'lini ochadi.
 Ayo beg, roxat istama, mashaqqat chek,
 Rohat bilan mashaqqat izma-iz yotadi.
 Menga mashaqqat yetsa, rohat ham yetadi,
 Rohat bilan mashaqqat yondashib yuradi.*

Ichkilikbozlik va zino insonni yo'ldan adashtirishi va maqsadlariga erisha olmasligi, hatto tuzuk shaxs ham may ichgach nojo'ya ishlarni sodir ettishi mumkinligini quyidagi bayt orqali tushuntirishga harakat qilgan:

*Qanchadan-qancha qilinishi lozim ishlar may ichgach, qolib ketadi.
 Qanchadan-qancha nojo'ya ishlar kayf qilgach sodir bo'ladi.*

Yoki:

*Ichimlik ichma, zinhor zinoga yaqinlashma, hazar qil
 Bu ikki narsa gadolik to'nin kiygizadi.
 Ichimliklardan yurak (botirlashib) ming-ming
 gunohlarga qo'zg'aladi.
 Zinodan qut qochadi, yuzinga tupiradi.*

Asarda eng avvalo, inson qadr-qimmati yuksak fazilatlarga egaligi bilangina baholanishi tarannum etilgan. Bunday fazilatlarga ega insonlar xalq orasida aziz va mukarram bo'lish aytildi. Inson fazilati qancha ortsu, uning martabasi, qadri shu

qadar ortib boradi. Lekin yuksak fazilatlar nimalardan iborat? Muallif donolikni, ilmni, ota-oni pandiga doim qulqoq tutishni, ularni xizmatida bo‘lishlikni targ‘ib qiladi:

*O‘lim bo‘lmasa qanday ezgu ish bo‘lar edi,
Kishi o‘lmasa qanday chiroyli ish bo‘lar edi.
Agar nodonga kelgan davlat unga yarashsa
Donoga kelgan davlat unga nihoyatda yarashadi
Agar (davlat) nodonga kelib qaror topsa,
U (davlat) dono uchun mos va muvofiq bo‘lib qaror
topadi.*

Yoki:

*Otangning pandini sen qattiq tut, qattiq,
Seni baxtga eltadi, kuning kundan-kunga shirin
bo‘ladi.
Otangni, onangni doim xursand qil,
Xizmatlaring evaziga tuman ming hissa foyda
olasan.*

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonida yetuk axloqiy madaniyat va barkamol avlodni tarbiyalash masalalari asosiy o‘rin tutadi. Dostonda ushbu darajaga erishishda quyidagi fazilatlar talab etiladi: Birinchidan, Yaratganga, olamga, o‘zi yashab turgan mamlakat va uning hukmdoriga sodiqlik, xayrixohlik. Ikkinchidan, axloqiy komillik, diniy e’tiqodda sobit bo‘lish. Uchinchidan, aql-zakovat, chuqur bilim (ilm) va hunar (san’at) egasi bo‘lish. To‘rtinchidan, ehtiyojlarini qondirishga yetarli mol-mulk yig‘a olish. Beshinchidan, qanoatli bo‘lish, o‘zida nafsn siadirish, dunyo moliga hirsni yo‘qotish. Oltinchidan, mard va jasur bo‘lish kabi. Uning yuqorida ta’kidlangan ahamiyati va unda inson ma’naviyati, jamiyatning illatlardan xoli bo‘lishi masalalari badiiy, obrazli talqin qilingani asar abadiyatini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ibirayimov A., Jamirova U. Jahon turkologiyasining buyuk obidasi “Qutadg‘u bilig” va uni o‘rganishning dolzarb masalalari //Yusuf Balasag‘uniyning “Qutadg‘u bilig” kitobidagiadolat, baxt, aql, qanoat tushunchalari. Xalqaro konferensiya to‘plami. –T.: TDShU, 2020. –B.149.
2. Shodmonov N. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi Birinchi qism (Eng qadimgi davrlardan XIV asr boshigacha). O‘quv qo‘llanma. –B.18.
3. To‘xliyev B. Turkologiyasining buyuk obidasi “Qutadg‘u bilig” va uni o‘rganishning dolzarb masalalari //Yusuf Xos Hojib insonning ma’naviy kamoloti haqida. Xalqaro konferensiya to‘plami. –T.: TDShU, 2020. –B.42.
4. Баролина И. Поэма «Кутадгу билиг» // Юсуф Хас Хаджиб. Наука быт счастливым. Пер. Н. Гребнева. –Т.: 1963. –С. 102.
5. Валитова А. К вопросу о классовой природе Караканидского государства... –С. 129.

6. Валитова А. Юсуф Баласагунский и его «Кутадгу билиг» ... –С.59-60.
7. Куделин В. Поэзия Юнуса Эмре. –М.: Наука, 1980. –С. 88-89.



TILSHUNOSLIKDA EPITETNING O'RGANILISHI

Feruza Parmonova, JDPU magistranti

“Epitet” atamasi grek tilidan olingan bo‘lib, ismga «tirkalgan» degan ma’noni anglatadi. Epitetlarga qiziqish qadimgi Gresiyada yuzaga keladi. Bu haqda rus olimlari A.P.Lobodanova «K istoricheskoy teorii epiteta» asarida, shuningdek, V.M.Jirmunskiy va A.N.Veselovskiy kabi olimlar tadqiqotlarida uchraydi.


Aristotelya, Germogen, Demetriy, Kvintilian kabi faylasuflar poetik nutqning atributi sifatida qaraydi. A.P.Lobodanova ta’kidlashicha, qadimgi greklar «epitet» atamasini bir ismnинг boshqa nom (aksidensiya) bilan atalishi sifatida qo‘llaganlar. Aksidensiya, ya’ni xususiyat, ismnинг belgisi, xususiyati . Tarixiy grek tilshunosligi manbalariga nazar tashlasak, so‘z turkumlarida ism, fe'l va ko‘makchi inobatga olingan. So‘z turkumida sifat bo‘lmaganligi sababli «ismning nomi» sifatida fikr yuritganlar. Ammo «epiteton» atamasi bo‘lib, «onome» (ism) bilan doim birga kelgan.

Dionisiy Frakiyes yozadi: «Sifat – xususiga maqtov sifatida biriktirilgan ». Jumladan, aynan xudolarning nomi (Afrodita – morskaya, Zevs – blagoveter) ularning fazilatini ifodalab kelgan. Grek shoir va notiqlari feodallarni maqtash, ularni ulug‘lash maqsadida turli janrlarda ijod qilganlar.

Mark Fabiy Kvintilian (eramizning 35-100 yillar) Rim notiqlik san’atining ustozи bo‘lib, u 12 kitobdan iborat «Notiqlik darsligi»ni yozdi.

M.T.Varron «Lotin grammatikasi haqida» 25 kitobdan iborat asar yozgan, lekin uning 6 tasi bizgacha yetib kelgan. M.T. Varronning bu kitobida avval davom etgan analogistlar va anarchistlar bahsi batafsil yoritilgan. Bundan tashqari, uning «Lotin tili haqida», «So‘zlarning o‘xshashligi haqida», «Lotin tilining kelib chiqishi haqida» asarlari ma’lum. Ushbu asarlarda epitetylarni quyidagi guruhlarga bo‘lganlar:

41.	Malika Boltayeva. Nazar Eshonqul hikoyalariда yangicha tasvir va talqin	194
42.	Sherzod Rahmataliyev. Erkin Vohidov ijodini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish usullari	197
43.	Davlat Usanov. Qahramon ruhiyati qirralarini aks ettirishda ijodkor mahorati	200
44.	Dildora Toshmurodova. Adiba hikoyalari badiiyatida mahorat qirralari	203
45.	Azadaxan Urazova. Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida realiyalar	208
46.	Shohruh Kuyliyev. Said Ahmad hikoyalariда satira va humor	210
47.	Zilola Abdusodiqova. “Qutadg‘u bilig”da axloqiy madaniyat va yetuk insonni kamolga yetkazish masalalari	212
48.	Feruza Parmonova. Tilshunoslikda epitetning o‘rganilishi	217
49.	Nigora Shuxratjonova. Pandnomma asarlar an’anasi hamda ularning adabiyotshunoslilikda o‘rganilishi	219
50.	Muborak Salohiddinova. Adabiy jarayon va xotiralar turkumi	226
51.	Azadaxan Urazova. “Momo yer...” dan kelgan mujda	229
52.	Narzulla Immatov. “Gulshanul –asror” da olmoshlarning ifodalaniishi	232
53.	Umriniso Radjabova. Romanda bosh qahramon yaratish mahorati	235
54.	Mahliyo Mamitova. Mustaqil mutolaa va adabiy tahlil	239
55.	Dildora Xasanova. Abdulla Ahmad nasriy asarlarida xarakter yaratish mahorati	244
56.	Mohira Ankabayeva. Huvaydo she’riyatida lirik qahramon masalasi	249
57.	Soxiba Xamroyeva. “Jaziramadagi odamlar” romanida ayol obrazi tasviri	254
58.	Abror O’rolov. “Alkimyogar” romanida inson taqdidi badiiy talqini	258
59.	Maftuna Abdumajidova. “Ta’viz ul-oshiqin” devoni dagi musammatlarning mavzu ko‘lami, shakl va mazmun muvofiqligi	261
60.	Muhlisa Pardaboyeva. Said Ahmad asarlarida frazeologizmlarning qo‘llanilishi	268
61.	Gulnoza Abdullayeva. O‘tkir Hoshimov ijodida folklorning o‘rni	272
62.	Rustam Mardihev. Boqiy haqiqat va badiiyat talqini	275
63.	Sitora Yo‘ldosheva. Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalari xususida	279
64.	Shahnoza Mavlanova. Jahon adabiyotida bola obrazi talqinlari	282
65.	Fotima Aliyeva. Omina Shenlik o‘g‘lining “Ishqqa Yengilmayman” asarida ikki ayol – ikki dunyo timsollari	285
66.	Muhammadqodir Toshpo‘latov. Behzod Fazliddin lirkasida vaqt obrazi poetikasi	288
67.	Dildora Qarshiboyeva. O‘zbek she’riyatida sonet janrining paydo bo‘lishi va uning genezisi	294



“BIZ SALAFLAR IZDOSHLARIMIZ”

mavzusiga bag‘ishlangan Ilmiy-amaliy anjuman materiallari

(2-kitob, 1,3,4,5 shu’ba)

Muharrir: N.Soatova
Musahhih: D.Salimova
Sahifalovchi: G‘.Israilov

Nashriyot litsenziyasi №AI 242, 04.07.2013-y.
Ofset qog‘ozi. Bosishga ruxsat etildi 09.02.2023.
Formati 60x84 1/16. Garnitura «Times New Roman».
Bosma taboq 67.0 Adadi 100. nusxa. Buyurtma №12.

Manzil: 130100. Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sharof Rashidov ko‘chasi, 4-uy

Bog‘lanish: +99890 311 3555, +99899 553 0760

